# Xotin-qizlar faollari bilan ochiq muloqot o’tkazildi

Rishton tumani hokimligi majlislar zalida mahallalardagi xotin-qizlar faollari bilan muloqot-uchrashuv o’tkazildi. Unda O’zbekiston Respublikasi Prezident administratsiyasi raxbari o’rinbosari Olimjon Soliev, O’zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar Davlat qo’mitasi mas’ul xodimi Nilufar Abdullaeva, Farg’ona viloyati oila va xotin-qizlar boshqarmasi mas’ul xodimi Yorqinoy Sharipova, tuman hokimi Sufhonjon Soliev va sektor rahbarlari, tegishli tashkilotlar, bank-moliya muassasalari mutasaddilari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etishdi.

Uchrashuv avvalida Olimjon Soliev so’z olib, hududlarda xotin-qizlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o’rni va faolligini oshirish, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ularni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, oila va xotin-qizlarning muammolarini o’z vaqtida aniqlash, og’ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko’rsatish, qishloqlardagi xotin-qizlarni kasb-hunarga, oilaviy va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, oilalar ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash masalalari bilan bog’liq chora-tadbirlar samaradorligini tahliliy muhokama qildi.

Muloqot davomida, xotin-qizlar faollarining asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish mexanizmlari, jumladan, ijtimoiy xizmatlarni mahallada tashkil etish; oilalarda ijtimoiy muhitga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi holatlar, ularning oldini olish borasida mutasaddi tashkilotlarning o’zaro hamkorligini hamda xotin-qizlarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish; xotin-qizlar faollari tomonidan oilalar va xotin-qizlar o’rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borish, ommaviy sport tadbirlarini o’tkazish, jamoatchilik tuzilmalari ishini samarali tashkil etish bo’yicha ishtirokchilarga zarur tavsiyalar berildi.

Shuningdek, uchrashuvda xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, subsidiyalar va bank kredit mablag’larini ajratish orqali ularni tadbirkorlikka jalb etish, ishsiz xotin-qizlarni kasb-hunarga o’qitish va salomatligini mustahkamlash, mahalla ayollari ishtirokida sport-sog’lomlashtirish musobaqalarini o’tkazish, xotin-qizlar o’rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, madaniy-ommaviy tadbirlarda xotin-qizlar ishtirokini qo’llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan sektor rahbarlari hamda tegishli mutasaddilarning hisobotlari eshitildi.

O’zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar Davlat qo’mitasi mas’ul xodimi Nilufar Abdullaeva ham xotin-qizlar faollarining oldida turgan vazifalar haqida gapirib o’tdi.

Uchrashuv yakunida, xotin-qizlar faollari faoliyati samaradorligini oshirish, o’zaro hamkorlikni yanada izchil yo’lga qo’yish bo’yicha zarur tavsiyalar berildi.

- Bugungi ochiq muloqot biz uchun juda foydali bo’ldi. O’zimimiz uchun kerakli bo’lgan ma’lumotlarga ega bo’ldik. Bizning vazifamiz aniq belgilab berildi, deydi "Farovonlik" MFY xotin-qizlar faoli. Q. Mamajonova.

**Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2022-07-01 09:12:09